

BOLANING TA'LIMGA TAYYORLIK MUAMMOLARI

Majidov Jasur Baxtiyarovich-JDPU, Umumiy psixologiya kafedrasи katta o'qituvchisi Ismatova Moxichexra- JDPU, Psixologiya (amaliy psixologiya) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda mакtab ta'limga yetuklik yuzasidan ayrim pedagogik-psixologik fikrlar o'rин олган.

Kalit so'zlar: ta'limga yetuklik, psixologik tayyorlik, intellektual, emosional – ijtimoiy tayyorgarlik

Bugungi zamonaviy ta'lim shaxsga yo'naltirilganligi bilan tobora sifatiy mazmun kasb etib bormoqda. Albatta shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deganda, eng avvalo har bir shaxsning individual sifatlarini inobatga олган holda ta'limni tashkil etish nazarda tutiladi. Sinf jamoasida ta'lim оlayotgan har bir o'quvchi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, berilayorgan ma'lumotlarni qabul qilib boradi.

Qonun bo'yicha bola maktabga 6-7 yoshda chiqadi. Ko'pchilik bolalarda o'quv yilining birinchi oyida o'qishga bo'lgan ishtiyoq kuchli bo'ladi. Keyin esa muammolar boshlanishi tez-tez uchraydigan holatdir. Mutaxassislar buning sababini bolalarning maktabga ilm olish uchun psixologik tayyor bo'lmay chiqishlarida deb e'tirof etmoqdalar. Ular avvalo jismonan tayyor bo'lishlari kerak bo'lsa (darslarning oxirigacha o'tirishga toqatlari yetishi, darslarni qoldirmaslik uchun salomatliklarining yaxshi bo'lishi), ikkinchidan, pedagogik tomonidan tayyor bo'lishlari lozim. Lekin bugungi kunda aksar bog'chalar va maktabga tayyorlov muassasalarida bolani faqatgina pedagogik tayyorlashgagina e'tibor qaratilmoqda. Ularga harflar, raqamlar, o'qish qoidalari, xullas, birinchi sinf programmasining soddalashtirilgan ko'rinishi o'rgatilmoqda. Vaholanki, birinchi sinfga kelgan bola huddi shu narsalarni maktabda yana o'rganadi. Shunday ekan, bolani maktabga tayyorlash o'z ichiga xozirda bog'cha va tayyorlov guruhlarida o'rgatilayotganlarni emas, balki, boshqacharoq mazmunni kasb etishi kerak deb hisoblaymiz. Xo'sh, nimalarni olishi kerak ekan? Bu - maktabga psixologik jihatdan tayyor bo'lish. Afsuski, maktabga tayyorlashning bu tarafi haqida hamma ham o'ylamaydi. Pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar bolaning maktabga moslashuvi uning aynan psixologik tayyorligiga bog'liqligini yo bilishmaydi, yo bu haqda unutishadi.

Psixologik tayyorlik esa shaxsiy va aqliy tayyorlikdan iboratdir. Aqliy tayyorlik ziyraklik deb nomalanuvchi aqliy hususiyatning ma'lum miqdordagi rivojiga bog'liq. Agar bola zyrak bo'lsa, harflarni ham, tovush, raqam, sanoqni ham oson o'zlashtiradi. Bola biror fanni o'zlashtirishida o'z e'tiborini bir joyga to'play olishi kerak, demak, maktabda diqqat unga juda kerak bo'ladi. Yaxshi xotira dars paytida butun materialni qiyinchiliksiz ilg'ab olishga yordam beradi, oqibatda yaxshi o'zlashtirish uchun bolaga o'tilgan mavzuni uyda birrov takrorlab olishning o'zi yetarli bo'ladi.

Shahsiy rivojlanish ham aqliy rivojlanishchalik zarurdir. Bola maktabga nima uchun kelganini tushunib yetadimi, unda o‘qishga bo‘lgan ishtiyoq mavjudmi? Bola shaxsiy rivojining eng muhim jihatni uning motivatsiyasi, ya’ni o‘z xatti-harakatlarini asoslay olishidir. Bola o‘qishni istaydimi, yo‘qmi, yangi narsalarni o‘rganish u uchun qiziqmi, yoki zerikarlimi, maktabga nima uchun borayotganini anglab yetadimi, yoki maktabni do‘satlari bilan vaqt o‘tkazish uchun boriladigan joy sifatida ko‘radimi? - buni, albatta, e’tiborga olishimiz lozim.

Odatda maktabga yetuklikning uch asosiy jihatni belgilanadi:

- psixologik;
- intellektual;
- emosional – ijtimoiy;

Ta’limiga psixologik tayyorgarlik, deganda bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bolalarning ko‘pchiligi maktabga psixologik jixatdan tayyor emaslar. Tasodifni qarang-ki, pedagogik jixatdan tayyorlangan bolaning psixologik tayyorgarligi ortda qolarkan. Bunga sabab nima? Hali maktabga chiqmay turib, bolaga o‘qish, hisoblash, ko‘p xollarda hatto yozishni ham o‘rgatiladi. Bog‘chalarda bu narsalarga bolani taxminan 5 yoshlardan boshlab o‘rgatiladi. Lekin bu yoshda bola hali bunday mashg‘ulotlarga tayyor emas. U hali o‘yin o‘ynagini keladi. Bog‘cha programmasiga esa o‘yinlar kiritilmagan. Qolaversa, bola bo‘sh vaqtida ham o‘ynamaydi, negaki o‘ynashni bilmaydi. Syujet-rolga asoslangan va qoidalari o‘yin o‘ynashni bolaga o‘rgatish lozim ekan. Aynan o‘yin paytida bolada ziyraklik, xotira, diqqat rivojlanadi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim sistemasi o‘yin o‘rnini o‘qitish bilan almashtirdi. Buning oqibatida bir tomondan aqliy rivojlanish oqsasa, undan ham ko‘proq miqdorda shahsiy rivojlanish ortda qolmoqda. Xozirgi birinchi sinf o‘quvchilari psixologik yoshi jihatidan hali “maktab oldi davri” bolalaridir, shunday ekan, ularning qiziqishlari ham yoshiga yarasha bo‘ladi. Ular uchun o‘yin o‘ynash o‘qishga qaraganda qiziqarliroq. Aynan shuning uchun bugungi kunda ulkan muammo vujudga kelmoqda – bolalarning o‘rniga ularning ota-onalari o‘qimoqdalar. O‘qishning birinchi kunlaridan boshlab ota-ona birinchi siznif bolasi bilan birgalikda uy vazifalarini bajarmoqda.

Birinchi sinfga chiqqan bolaga bog‘cha yoki tayyorlov guruhida o‘rganganlari yana o‘qitala boshlaydi. Maktabgacha yaxshi o‘zlashtirmagan taqdirida ham bola bu narsalarni bilaman, deb o‘ylaydi. Buning oqibatida bola dars vaqtida o‘qituvchga kerakli miqdorda e’tibor qaratmaydi. Keyinchalik yangi material berila boshlaganda esa, odatiga ko‘ra yaxshi qulop solmaydi. “Kerak”, “majbur” degan tushunchalarni anglashi uchun bola ularga tayyor bo‘lishi lozim. Aks xolda, majburiyat talab qilinganda, o‘quvchi bu narsalarni kattalarning unga bo‘lgan yomon muomalasi deb qabul qiladi. Oqibatda esa maktabdan ko‘ngli soviy boradi. Ota-onalar farzandini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarini deb urushishsa, bu bilan boladagi o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni so‘ndirib maktabga bo‘lgan salbiy fikrni kuchaytirishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabga chiqish ostonasida turgan har bir gio‘quvchining maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini mutaxasislar nazoratidan o‘tkazib ta’limga jalb qilishi unutmasligimiz bizning asosiy burchimiz hisoblanadi. Shundagina boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan o‘zlashtira olmaslik, ulgura olmaslik kabi muammolardan asragan bo‘lamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bajovich L. Lichnost i ee formirovaniya v detskim vozraste. M., 1995 g.
2. Obuxova L.F. Detskaya psixologiya. M., 1985g
3. Ratter M. Pomosh trudnim dertyam M., Progress 1987 g.
4. Атамуродова, Р. Қ., & Ўтамуродова, Г. (2023). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ ФУРУРНИ ШАКЛАНТИРИШ.(АБДУЛЛА ОРИПОВНИНГ «СОХИБҚИРОН» ДОСТОНИ МИСОЛИДА). *Oriental Art and Culture*, 4(2), 683-688.
- 5.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).
- 6.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).
- 7.Usmonova, M. (2023). O‘SMIRLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(3).
- 8.Usmonova, M. (2023). MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH TALABLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(3), 152-155.
- 29.Mamaraimova, R. (2024). КАК НЕ ПОДДАВАТЬСЯ ПРОВОКАЦИЯМ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 23-29. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9644>
- 9.Р.У.Мамараймова. (2022). ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНШНИНГ МАЗМУН МОХИЯТИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 513–517. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337651>
- 10.Mamaraimova, R. (2022). УМУМ ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5549>
- 11.Mamaraimova, R. (2021). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАР КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЖИҲАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2967>
- 12.Odiljonova, X. (2024). O ‘QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O‘STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 3-11.

- 13.Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5).
- 14.Odiljonova, X. (2024). “MEN” KONSEPSIYASIGA YONDASHUVLARNING O‘ZIGA XOSLIGI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 62-70.
- 15.Odiljonova, K. (2023). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B4), 267-272.
16. Sangirova, N. (2024). SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA OILANING ROLI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(2), 69-73. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9725>
- 17.Sangirova, N. (2024). ШАХСДА ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИНИНГ ЎЗИНИ-ЎЗИ ИДРОК ЕТИШ БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИ МУАММОЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(2), 74-81. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9749>
- 18.O’tamuradova, G. (2024). БЕРУНИЙНИНГСОҒЛОМ АВЛОД ТАРБИЯСИ ҲАҚИДАГИ ПСИХОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ . *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(2), 95-103. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9764>
- 19.Mamaraimova, R. (2024). ПСИХОЛОГИЯ РЕЛИГИОЗНАЯ ИСПОВЕДИ И МЕДИТАЦИИ . *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(2), 30-36. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9645>
- 20.Mamaraimova, R. (2024). КАК НЕ ПОДДАВАТЬСЯ ПРОВОКАЦИЯМ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(2), 23-29. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9644>
- 21.Ахмедова Насиба Ачиловна. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОЙ КОМПТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 529–532. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337671>
- 22.Р.У.Мамараимова. (2022). ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНШНИНГ МАЗМУН МОХИЯТИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 513–517. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337651>
- 23.Mamaraimova, R. (2022). УМУМ ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5549>
- 24.Mamaraimova, R. (2021). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАР КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЖИҲАТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2967>